

A. Axmadov
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
filologiya va tarix fanlari doktori (DSc)
amon.axmatov@mail.ru

Ivanova To'xtagul Jumaqul qizi
Buxoro davlat universiteti
Tarix yo'nalishi magistranti
itoxtagul@gmail.com

RESPUBLIKA DAVRI TURKIYA ADABIYOTIDA ADIB VA SHOIRLAR IJODINING IJTIMOIY MOHIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiyada Respublika davri adabiy hayotining shakllanish jarayoni, ijtimoiy-siyosiy islohotlarning adabiy muhitga ko'rsatgan ta'siri, shuningdek, davr ijodkorlarining faoliyati va ularning asarlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy mustaqillik va milliy o'zlik (identitet) g'oyalarining badiiy adabiyotda aks etishi ilmiy asosda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Adabiy jarayon, Turkiya Respublikasi, Nozim Hikmat, Xolida Adip Adivar, milliy mustaqillik, milliy identitet.

СОЦИАЛЬНАЯ СУЩНОСТЬ ТВОРЧЕСТВА ПИСАТЕЛЕЙ И ПОЭТОВ В ТУРЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ РЕСПУБЛИКАНСКОГО ПЕРИОДА

Аннотация. В данной статье рассматриваются процесс формирования литературной жизни Турции в период Республики, влияние социально-политических реформ на литературную среду, а также анализируются деятельность и произведения ведущих деятелей эпохи. В исследовании на научной основе раскрывается отражение идей национальной независимости и национальной идентичности в художественной литературе.

Ключевые слова. Литературный процесс, Турецкая Республика, Назым Хикмет, Халиде Эдип Адивар, национальная независимость, национальная идентичность.

THE SOCIAL ESSENCE OF THE WORK OF ADIB AND POETS IN TURKISH LITERATURE OF THE REPUBLICAN PERIOD

Annotation. This article examines the formation of literary life in Turkey during the Republican period, the impact of socio-political reforms on the literary environment, and provides an analysis of the activities and works of prominent writers of the era. The study scientifically explores the reflection of the ideas of national independence and national identity in literary works.

Keywords. Literary process, Republic of Turkey, Nazım Hikmet, Halide Edip Adivar, national independence, national identity.

Kirish. Har bir davlat o'zining shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti jarayonida turli siyosiy tuzumlarni boshdan kechiradi. Ushbu rivojlanish bosqichlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri — amalga oshirilgan islohotlardir. Siyosiy jarayonlarning borishi ko'p jihatdan mamlakatda olib borilgan islohotlarning mohiyati, yo'nalishi va natijalari bilan chambarchas bog'liq ekanligi barchaga ayon. Zero, islohotlarning samaradorligi, avvalo, ularning qanchalik puxta ishlab chiqilgani va izchil amalga oshirilganiga taqaladi. Tatbiq etilgan islohotlarning ko'lami va mazmuni siyosiy jarayonlarga ta'sir etibgina qolmay, jamiyat hayotining boshqa sohalarini ham bevosita yoki bilvosita harakatga keltiradi.

Biz o'rganmoqchi bo'lgan tarixiy davr — Mustafo Kamol Otaturk faoliyati davri ham aynan shu qonuniyatlar asosida shakllangan. Xususan, uning hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng amalga oshirgan tub islohotlari siyosiy hayotga, o'z navbatida esa adabiy-madaniy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bois mazkur tadqiqotda Turkiya adabiy muhiti tarixiga aynan siyosiy

islohotlar kontekstida yondashiladi. Chunki adabiy muhit tarixi doimo siyosiy hayot bilan hamnafas bo'lib kelgan.

Muhokama va tahlillar. Turkiya milliy faxri Mustafa Kamol Otaturk tomonidan amalga oshirilgan islohotlar o'z umrini yashab bo'lgan sultonlik tuzumini tugatib, Respublika davriga asos soldi. Uning sa'y-harakatlari natijasida turk millati milliy o'zligini yangicha mazmunda anglay boshladi, modernizatsiya jarayoni kuchaydi va jamiyat g'arb an'alariga yaqinlashdi. Mazkur islohotlar turk jamiyatida turlicha qabul qilindi. Xususan, adabiy muhit vakillari ham bu jarayonlarga o'ziga xos munosabat bildirdilar: modernizatsiya siyosatini qo'llab-quvvatlagan ijodkorlar bilan bir qatorda, unga tanqidiy yondashgan, hatto muxolif pozitsiyani egallagan adiblar ham kam emas edi.

Shu bilan birga, Respublika davri islohotlaridan eng ko'p ilhomlangan ijtimoiy qatlamlardan biri aynan ijodkorlar bo'ldi. Natijada bu davrda o'ziga xos adabiy muhit shakllanib, adabiy janrlarning qo'llanishida yangilanish jarayoni kuzatildi. Yangi fikrlovchi ijodkorlar maydonga chiqdi, adabiyotga milliy identitetga yo'g'rilgan yangi ruh kirib keldi. Mumtoz adabiy til isloh qilinib, asarlar xalq tiliga yaqin, sodda va tushunarli shaklda yozila boshlandi. Milliy ruh, ya'ni turklik g'oyasi etakchi mafkuraviy tushuncha sifatida shakllandi. Nasrda ham, nazmda ham aynan shu g'oyalar asosida yaratilgan asarlar yuzaga keldi.

Bu davrda Xolida Adip Adivar, Yoqub Qodri Qaraosmanog'lu, Mehmet Akif Ersoy, Rashot Nuri Guntekin, Yahyo Kamol Beyatli, Ahmet Hoshim, Peyami Safa, Orhan Kamol, Tarik Bug'ro, Nozim Hikmat, Sabahittin Ali kabi ijodkorlar nasriy va nazmiy asarlari orqali xalq ongiga milliy o'zlik, modern jamiyat tushunchasi, fuqarolik mas'uliyati kabi g'oyalarni singdira oldilar.

Respublika davrida ijod qilgan yozuvchi, siyosatchi va akademik Xolida Adip Adivar asarlarida zamonaviy Turkiya, ayollar huquqlari va milliy ong masalalarini yoritdi. U, ayniqsa, Meshrutiyat va Jumhuriyat davrlarida ilg'or ijodi hamda xalqni vatanparvarlikka da'vat etuvchi asarlari bilan Turkiya adabiyotida o'chmas iz qoldirdi. Uning eng mashhur asarlari qatoriga "Ateşten Gömlek" ("Olovdan ko'ylak") va "Vurun Kahpeye" ("Uring, xoinni") romanlari kiradi. Mazkur asarlarda milliy mustaqillik va istiqloq urushi jarayonida xalq ongiga ma'rifat orqali milliy o'zlik g'oyalarni singdirish masalasi markaziy o'rinni egallaydi.

Jumladan, "Ateşten Gömlek" asarida istiqloq urushlari davrida eri va farzandidan ayrilgan, harbiy shifoxonalarda xizmat qilgan irodali ayol obrazi yoritiladi. Asar bosh qahramoni Oysha vatan uchun kurashni barcha shaxsiy tuyg'ulardan ustun qo'yib, bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayyor obraz sifatida talqin etiladi. Asar Peyami ismli qahramon tilidan hikoya qilinadi. Peyami Oyshaga oshiq bo'ladi, biroq Oysha uchun vatan muhabbati har qanday shaxsiy muhabbatdan ustun turadi. Asarning bosh g'oyasi — "Vatan uchun kurashga bel bog'lagan inson olovdan ko'ylak kiyishga ham tayyor bo'lishi kerak" degan yuksak vatanparvarlik ruhida ifodalangan bo'lib, bu g'oya kitobxon qalbida chuqur ta'sir uyg'otadi [1, 208-b.]. Xolida Adip Adivar o'z asarlarida bugungi kunda dolzarbligini yo'qotmagan gender tenglik masalalarini bundan bir asr avval dadil ilgari surgan ijodkor sifatida e'tirof etiladi.

Respublika davri adabiyotining yana bir muhim vakili — Rashot Nuri Guntekin ijodini ham alohida ta'kidlash lozim. Uning asarlari bevosita Respublika davri hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yozuvchi ijodida davrning ijtimoiy muammolari keng yoritilgan. "Yashil kecha", "Xazonrezgi", "Yaproq to'kilishi", "Choliqushi" kabi asarlarida qishloq mehnatkashlarining hayoti, vatanparvarlik, ishq-muhabbat mavzulari mahorat bilan tasvirlangan [2, 200-b.]. Ayniqsa, unga katta shuhrat keltirgan "Choliqushi" romani milliy va vatanparvarlik ruhiga sug'orilgan bo'lib, ishqiy syujet bilan bir qatorda, Usmonlilar imperiyasining so'nggi davridagi davlat tuzumi, ayollarning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy hayot masalalarini ham mohirlik bilan aks ettiradi. Asar bosh qahramoni Faridaning turli viloyatlarga o'qituvchi sifatida yuborilishi va xalq savodxonligini oshirish yo'lidagi sa'y-harakatlari eski tuzumdan modern jamiyatga o'tish jarayonining ramziy ifodasi sifatida talqin etilishi mumkin [3, 448-b.]. Asarda Usmonli imperiyasi tuzumi va Birinchi jahon urushi voqealari tarixiy hodisa sifatida ham yoritilgan. "Choliqushi" romani Turkiyada eng ko'p o'qilgan va qayta-qayta nashr etilgan asarlardan biri bo'lib, millionlab kitobxonlar qalbidan joy olgan. Hatto Mustafa Kamol Otaturkning o'zi ham mazkur asar haqida ijobiy fikrlar bildirgani

manbalarda qayd etiladi. Asarning bunday keng shuhrat qozonishining asosiy sababi uning sodda, ravon va xalqchil ruhda yozilganidir.

Otaturk davri adabiyotining o'ziga xos jihati ham aynan ana shu — tushunarli, hayotga yaqin va xalq ruhiga mos ifoda uslubidir. Bu davrda nasr bilan bir qatorda nazm sohasida ham bir qator shoirlar o'z ijodlari bilan nafaqat Turkiya adabiyotida, balki jahon adabiyoti tarixida ham munosib o'rin egalladilar.

Jumladan, Respublika davrining dastlabki yillarida eng iste'dodli shoirlardan biri sifatida tanilgan Yahyo Kamol Beyatli she'rlarida vatanparvarlik, klassik uslub va Istanbul ruhini o'ziga xos tarzda aks ettirdi. U she'rlarini asosan ikki yo'nalishda yaratdi: birinchisi — sodda, tabiiy va real voqealarni tasvirlashga asoslangan uslub; ikkinchisi esa eski davr, ya'ni Usmonli davri devon she'ri an'analari tayanilgan yo'nalishdir. Uning sodda va real ruhda yozilgan she'rlari "Kendi Gökübbemiz" ("O'z osmon gumbazimiz") nomi ostida 1962-yilda nashr etildi. Shoir ijodida tarix, xalq madaniyati va turli ijtimoiy mavzular keng yoritilgan bo'lib, u klassik va g'arbonsa uslublarni ustalik bilan uyg'unlashtira oldi. Yahyo Kamol Beyatlining fikricha, she'rni shunchaki o'qish emas, balki uning ohangini his etish muhimdir. Uning she'rlarida o'tmish, bugun va kelajak bir butunlikda tasvirlanadi, bu esa kitobxon qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otishga xizmat qiladi.

Senga bir nazar soldim Istanbul
Ko'rmadim kezib ham sendayin bir joy
Umrin etguncha ko'nglim taxtiga qurul,
Butun umrim seni sevlashga arzir.

- deya Vataniga bo'lgan sevgisini e'tirof etadi "Aziz Istanbul" she'rida.[4.180b]

Manbalarni o'rganish jarayonida Yahyo Kamol Beyatlining hayotlik davrida asarlarini kitob holda nashr ettirmaganligi aniqlanadi. Uning barcha asarlari ijodkor vafotidan so'ng yaqin do'sti tomonidan kitob shaklida chop etilgan. Bugungi kunda Yahyo Kamol Beyatli Turkiya adabiyotida o'ziga xos uslubi va betakror poetik qarashlari bilan doimiy tadqiq etib kelinayotgan ijodkorlar sirasiga kiradi.

Jumhuriyat davri shoirlari orasida Nozim Hikmat ijodi ham alohida yuksak pog'onada turadi. U 1902-yilda Selanik shahrida tug'ilgan bo'lib, shoir, dramaturg va yozuvchi sifatida faoliyat yuritgan serqirra ijodkordir. Davriga nisbatan bildirgan siyosiy qarashlari sababli umrining katta qismini qamoqxonalarda va surgunlarda o'tkazgan Nozim Hikmat turk adabiyoti tarixida "romantik kommunist" nomi bilan ham tanilgan. U turk she'riyatiga erkin she'r shaklini olib kirgan va asarlarini asosan shu uslubda yaratgan. Uning she'rlarida ishq, siyosiy adolat, erkinlik, insoniy tuyg'ular kabi chuqur va umuminsoniy mavzular etakchi o'rinni egallaydi.

Nozim Hikmatning tasavvur va xayol kuchi shu darajada yuksak ediki, u qamoqxonada bo'lgan davrlarida ham ijoddan to'xtamagan va aynan shu sharoitda bir qator yirik asarlarini yaratgan. Bobosining ta'siri ostida yoshligidan she'r yozishga qiziqib qolgan ijodkor maktab yillaridayoq o'z iste'dodini namoyon etgan. Uning she'rlari o'quv davridayoq e'tirof etilib, bu hol yosh shoirni yanada teran mushohada yuritishga undagan. Keyinchalik bir qator nashrlarda kichik hajmdagi she'rlari chop etila boshlaydi.

Rossiyada yashagan davrida Vladimir Mayakovskiy ijodi bilan tanishishi Nozim Hikmat poetikasida muhim burilish yasaydi. Xususan, uzun-qisqa misralarga asoslangan erkin vaznli she'rlar unga kuchli ta'sir ko'rsatadi va natijada u ilk bor erkin vaznda "Açların Gözbebekleri" ("Ochlarning ko'z qorachig'i") nomli she'rini yaratadi. Mazkur asar gumanistik g'oyalar bilan sug'orilgan bo'lib, ijodkorning ijtimoiy adolat haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Hayotining katta qismi qamoq va surgunlarda o'tsa-da, Nozim Hikmat ijoddan bir lahza ham voz kechmagan va aynan shu davrda yaratilgan asarlari uning ijod daftarining eng yorqin sahifalariga aylangan.

Nozim Hikmat juda yoshligidanoq ishq mavzusiga murojaat qilgan ijodkor sifatida ham e'tiborga loyiqdir. U atigi 16 yoshida ilk muhabbat iztiroblarini qog'ozga tushiradi va shu tariqa bugungi kunda nafaqat Turkiyada, balki butun dunyoda mashhur bo'lgan ishq hasrati bilan yo'g'rilgan she'rlari dunyoga keladi:

*Ko'zlarim ko'zingda ishqni tanlamas,
Rashkimdan qalbimga sevgi ham o'tmas.
Men charchatdim ruhimni, biroz sen charchat,
Menimcha, sen ham endi hamma kabisan.*

Nozim Hikmatning ishq mavzusida bitilgan misralari shu qadar nozik va samimiyki, ular nafaqat she'riyat ixlosmandlari, balki adabiyotdan yiroq bo'lgan kitobxon qalbiga ham ta'sir eta oladi. Shu mavzudagi yana bir mashhur she'ridan parchaga e'tibor qaratamiz:

*Keyin oramizga shaharlar kirar,
Hech qarshilasholmaymiz.
Hatto tasodiflar ham uchrashtirolmaydi,
O'larmiz keyin balki, birimiz,
Xabarsiz qolarmiz bundan boshqamiz [5, 320-b.].*

Mazkur misralar tahlili shuni ko'rsatadiki, she'rda nafaqat obrazlar, balki har bir so'z chuqur ma'no bilan tanlangan. U kitobxon qalbini junbushga keltirib, o'tmish xotiralarini yodga olishga undaydi. Yuqoridagi misollar Nozim Hikmat ijod ko'lamining rang-barangligini yaqqol namoyon etadi. U faqat ishq mavzusigagina emas, balki davrning og'riqli ijtimoiy-siyosiy masalalariga ham dadil murojaat qilgan.

Bunga misol tariqasida Turkiya ozodlik kurashiga bag'ishlangan "Kuvayi Milliy Destani" ("Milliy kuchlar dostoni") asarini keltirish mumkin. Ushbu dostonida ijodkor ozodlik kurashi voqealarini epik shaklda tasvirlab, insonlarning urushga qarshilik ruhini milliy birlik tuyg'usi bilan uzviy bog'laydi. Asarning asosiy ilhom manbai Mustafo Kamol Otaturkning "Nutq" asari bo'lib, doston shoirning qamoq yillarida yozilgan. Shu sababli u Turkiyada turli nomlar ostida bir necha bor nashr qilingan. Dostonda bosh qahramon "ular" nomi bilan umumlashtiriladi va shoir tomonidan "qo'rqoq, jasur, johil, hokimdirlar" deya ta'riflanadi. Asardagi "ular" obrazi oddiy, mehnatkash va vatanparvar xalq timsolidir. Shoir asarning ilk misralaridanoq xalqni ulug'laydi va uning birlashgan taqdirida har qanday dushmanga qarshi turish qudratiga ega ekanini ta'kidlaydi.

Dostondagi vatanparvarlik ruhini aks ettiruvchi misralar bunga yorqin dalildir:

*Ey, aqldan ozgan telba ko'nglim,
Dedi:
Aqlli, umidli, sabrli tentak ko'nglim,
Yo istiqlol, yo o'lim,*

Asarda ayollar ham erkaklar qatori ozodlik uchun fidokorlik ko'rsatadi. Bu hol vatan uchun kurash yosh yoki jins tanlamasligini, "shu tuproqning farzandiman" degan har bir inson fidoyilikka tayyor bo'lishi zarurligini ifodalaydi. Bir so'z bilan aytganda, mazkur epik doston vatan va erkinlik yo'lida jon fido qilgan insonlar jasoratiga bag'ishlangan madhiyadir.

Zamondoshlari Nozim Hikmatdan "necha til bilasiz?" deb so'raganlarida, u shunday javob bergan: "Men uch til bilaman: ishq, tinchlik va erkinlik tillarini." Darhaqiqat, Nozim Hikmat butun umri davomida mana shu uch g'oyaga sodiq qoldi va nafaqat Turkiya, balki butun insoniyatga mangu ma'naviy meros qoldirdi.

Tarix davomida turli tuzumlar, tizimlar va davlatlar vujudga kelgan. Tabiatning o'zgarimas qonunlaridan biri shuki, har qanday sharoitda ham faqat kuchli va moslashuvchan tizimgina yashab qoladi. Bu qonuniyat tarixiy jarayonlarga ham xos bo'lib, Turkiya Respublikasi misolida buni yaqqol ko'rish mumkin. Respublika tuzumi turklar hayotida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Albatta, bu o'zgarishlarni xalq ongiga etkazishda muhim vositachi qatlam zarur edi. Bu vazifani shak-shubhasiz, davr ijodkorlari bajardilar.

Yuqorida nomlari tilga olingan shoir va yozuvchilar davrga osongina moslashmagan, ularning asarlari ham hech qanday to'siqlarsiz yuzaga kelmagan. Davr muammolarini o'z romanlari, she'rlari, dostonlari va sahna asarlariga singdira olgan ijodkorlarni muhit shakllantirdi va rivojlantirdi. Bu muhit esa Turkiya Respublikasi, Otaturk shaxsi, millat dardi va zamon talablari edi. Adabiyotda til soddalashdi, ijodkorlar asarlarida xalq dardi, milliy ozodlik ruhi, zamonaviy tuzumning murakkabliklari, Vatan muhabbati va yangi davlat qurish hayajoni keng aks ettirildi.

190 Aynan shu davrda adabiyotda turli oqimlar vujudga kelib, she'riyatda erkin vaznli ijod usuli keng qo'llanila boshlandi.

Bu o'rinda Mustafu Kamol Otaturkning o'zi ham adabiyot va she'riyatga yuksak e'tibor bilan qaraganini ta'kidlash lozim. U Respublika davri yosh shoirlarini g'oyaviy etuk asarlar yaratishga da'vat etgan. Bu esa davr ijodkorlari uchun kuchli ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan. Otaturk ta'kidlaganidek, "nafaqat nazmda, balki nasrda ham butun umrga arzigulik, g'oyaviy jihatdan yuksak asarlar yaratildi va ularning ayrimlari nafaqat Turkiya, balki jahon adabiyotida ham mangu nom qoldirdi".

Mazkur maqolada Turkiya Respublikasi davridan keyingi adabiy jarayonlarga qisqacha nazar tashlandi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu davr ijodkorlarining asarlari nafaqat badiiy-estetik qiymatga ega, balki o'z zamonasining ruhini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy-tarixiy hujjat sifatida ham ahamiyatlidir. O'tkazilgan izlanishlar kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi va Respublika davri adabiyot tarixini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiyada Respublika davri adabiyoti ijtimoiy-siyosiy islohotlar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan murakkab va serqirra jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Mustafu Kamol Otaturk tomonidan amalga oshirilgan islohotlar nafaqat siyosiy va ijtimoiy hayotni, balki adabiy tafakkur va badiiy ijod yo'nalishlarini ham tubdan o'zgartirdi. Natijada adabiyot milliy o'zlikni anglash, modern jamiyat g'oyalari targ'ib etish hamda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishning muhim vositasiga aylandi.

Mazkur davr ijodkorlari nasr va nazmda yangi badiiy shakllar va uslublarni sinab ko'rish bilan birga, tilning soddalashuvi va xalqchilik tamoyillarini ilgari surdilar. Xolida Adip Adivar, Rashot Nuri Guntekin, Yahyo Kamol Beyatli va Nozim Hikmat kabi adib va shoirlar ijodi orqali milliy mustaqillik, vatanparvarlik, erkinlik, ayollar huquqlari va ijtimoiy adolat masalalari badiiy jihatdan yuksak saviyada yoritildi. Ayniqsa, Nozim Hikmatning erkin she'r shaklini joriy etishi va epik asarlarida xalq obrazini markazga olib chiqishi Respublika davri adabiyotining yangicha qiyofasini belgilab berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Respublika davri Turkiya adabiyoti faqat badiiy-estetik hodisa bo'lib qolmay, balki o'z zamonasining ijtimoiy-siyosiy ruhini aks ettiruvchi muhim tarixiy-manbaviy ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi. Ushbu davr adabiy merosini o'rganish Turkiya jamiyatining modernlashuv bosqichlarini, milliy identitet shakllanishini va adabiyotning ijtimoiy ongga ta'sir mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Adivar, H. E. Ateşten Gömlek. – Istanbul: Aloqa nashriyoti, 2019. – 208 b.
2. Guntekin, R. N. Yaprak Dökümü. – Istanbul: Inqilob uyi nashriyoti, 2019. – 200 b.
3. Guntekin, R. N. Çalikuşu. – Istanbul: Inkilab uyi nashriyoti, 2020. – 448 b.
4. Yahyo Kamol Beyatli. Kendi Gökkubbemiz. – Istanbul: Fatih Jamiyati nashriyoti, 2019. – 180 b.
5. Nozim Hikmat. She'rlar (Tanlangan asarlar). – Istanbul: Evrensel bosma uyi, 2018. – 320 b.
6. Nozim Hikmat. Kuvayi Milliye Destanı. – Istanbul: Yapı Kredi Yayınları, 2020.
7. Akhmatov, A. (2024). Press and literary environment. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(7), 19-22.
8. Axmadov, A., & Axmatova, I. (2025). Buxoroda adabiy harakatchilik tarixiga bir nazar. *Modern Science and Research*, 4(3), 710-714.
9. Axmatov Amonkeldi Hasanovich (2022). XX asr 50-70 yillarida Buxoro adabiy muhiti tarixi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (4), 399-403.
10. Orziev, M. Z., & Akhmatov, A. K. (2020). The channel from Sirdarya to bukhara: truth or fraud. *Scientific reports of Bukhara State University*, 3(1), 234.

11. Ахматов, А. Ёзувчилар уюшмаси Бухоро бўлимнинг ташкил қилиниши ва дастлабки фаолияти. Таълим ва инновациялар тадқиқотлари (2021 йил № 5).
12. Akhmatov, A. History of Bukhara Literary Environment in 1950-1960 s. Middle European Scientific Bulletin. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/index> <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.16.748>.
13. Akhmatov A. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Бухоро бўлими тарихи. Research on social and Humanitarian sciences Volume: 01. Issue:01/Jan-2023 Impact factor: 7.2 (2022) ISSN-L: 3595-3566 www.scirp.org
14. Akhmatov A. Press and literary environment. Western European Journal of Linguistics and Education. Volume 2, Issue 7, July, 2024. <https://westerneuropeanstudies.com/index.php/2/article/view/1287>.
15. Akmatov A. Buxoroda adabiy harakatchilik tarixiga bir nazar. International scientific journal. "Modern science and research" Volume 4 / Issue 3 / uif:8.2 / Modernscience.uz. -B.710-714.
16. Axmatov A. Buxoro adabiy harakatchiligining qisqacha tarixi. **New renaissance international scientific journal**. ResearchBib IF -11.01, ISSN: 3030-3753, Volume 2 Issue 3. - P.1257-1262.
17. Axmatov A. Buxoro adabiy muhiti tarixining qisqacha bayoni. Pedagogik akmeologiya. 1(18)2025. -B.25-28.
18. Axmatov A. Buxorolik yozuvchi, shoir va publisist! **Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika**. <https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics/article/view/>.
19. Akmatov A. Writers' union in Bukhara. **Western European Journal of Linguistics and Education**. Volume 2, Issue 10, October, 2024. <https://westerneuropeanstudies.com/index.php/2/article/view/1543>.
- 20.